O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

XARIZMATIK NUTQ HAQIDAGI NAZARIY QARASHLAR TALQINI

INTERPRETATION OF THEORETICAL VIEWS ON CHARISMATIC SPEECH

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/OAMC5049

Qurbonova Munavvara Abdujabborovna
Filologiya fanlari doktori, professor,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
munavvara2013@yandex.ru

Annotation: *The article analyzes theoretical perspectives on charismatic speech through an anthropocentric approach. It examines the sociological interpretation of charisma and its manifestations in verbal communication, explaining the interrelationship among charismatic, motivational, and suggestive speech. Drawing on an analysis of relevant research, the article discusses the roles of linguistic, prosodic, and nonverbal means, communicative context, and audience perception in generating charismatic influence. It critically examines the limits of generalizing findings obtained from studies of particular speakers, languages, and speech genres. Proposals for studying charismatic speech in Uzbek linguistics include clarifying conceptual criteria, developing an audiovisual speech corpus, comparing the effects of content and voice, and accounting for cultural, individual, and inclusion-related factors. Charismatic speech is interpreted as a phenomenon that emerges from the interaction among the speaker, verbal expression, the communicative situation, and the audience’s response.*

Keywords: *charismatic speech, verbal influence, motivational speech, suggestive speech, prosodic features, nonverbal cues, audience perception.*

Dunyo miqyosida tilni uning iste’molchisi bo‘lgan shaxs omili bilan bog‘liq holda tadqiq etish tendensiyasi yetakchilik qilayotgan bugungi kunda nutqning inson tafakkuri, emotsional holati va xulq-atvoriga ta’sirini tadqiq etish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. So‘zlovchi muloqot jarayonida nutqiy birliklar ifodasi orqali tinglovchilarga ma’lumot berish bilan bir qatorda, ular ongida uzatilgan axborotga munosabatni shakllantirish, ishonch hissini uyg‘otish,

kommunikantlarni muayyan maqsad yo‘lida birlashtirish va faoliyatga undash imkoniga ega bo‘ladi. Bunda til birliklarini tanlash, fikr ifodalash usuli hamda auditoriya bilan munosabat o‘rnatish jarayonlari so‘zlovchining mahoratiga bog‘liq holda, xarizmatik nutq vositasida amalga oshiriladi.

“Xarizma” so‘zi qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib, “in’om”, “hadya”, “marhamat” ma’nolarini anglatadi. Zamonaviy talqinda uning shaxsiy joziba hamda yetakchiga nisbatan sadoqat yoki ishtiyoq uyg‘otish xususiyatini aks ettirishi alohida qayd etiladi. “In’om” semasi xarizmani faqat tug‘ma va o‘zgarmas qobiliyat sifatida talqin qilish uchun yetarli dalil bo‘la olmaydi. Mazkur tushunchaning sotsiologik talqinida shaxsning boshqalar tomonidan favqulodda qobiliyat egasi sifatida e’tirof etilishi markaziy o‘rinni egallaydi. M.Weber tadqiqotida xarizmatik hokimiyat legitim (boshqarilayotgan kishilar tomonidan hokimiyat egasining boshqarish huquqi asosli va maqbul deb tan olinadigan) hukmronlik shakllaridan biri sifatida tushuntiriladi. Bunda xarizma shaxsning odatdan tashqari sifatlari haqidagi tasavvur va unga ergashuvchilarning shu sifatlarni tan olishi bilan bog‘lanadi [Weber, 1978: 241-245].

Ko‘rinadiki, M.Weber konsepsiyasiga muvofiq xarizmani faqat shaxsning ichki xususiyati sifatida tushuntirish yetarli bo‘lmaydi. Bunda auditoriyaning yetakchilikni tan olishi ham muhim hisoblanadi. Biroq yuqorida ta’kidlanganidek, bu nazariya sotsiologiyaga oid bo‘lib, xarizmatik nutqning leksik, sintaktik yoki prosodik belgilarini bevosita tavsiflash imkonini bermaydi.

Tilshunoslikda xarizmatik, motivatsion va suggestiv nutq yondosh tushunchalar sifatida o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Motivatsion nutqning maqsadi tinglovchini faoliyatga undashdir; xarizmatiklik esa uning notiq nufuzi va ergashtirish qobiliyati orqali qanday qabul qilinishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Motivatsion maqsadga dalil yoki aniq ko‘rsatma orqali ham erishish mumkin. Suggestiv ta’sir esa singdirish va qabul qilish jarayonining o‘ziga xos mexanizmlariga aloqadordir [Yusupova, 2025: 85, 97].

Mashhur shaxsning har qanday nutqi xarizmatik xarakterga ega bo‘lavermaydi; aksincha, ilgari tanilmagan so‘zlovchi ham tinglovchiga muayyan vaziyatda kuchli yetakchi sifatida nutqiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Demak, auditoriya tomonidan obro‘, lavozim va nutqning qabul qilinishi bir-biriga ta’sir etuvchi, ammo aynan bir hodisani anglatmaydigan omillar sanaladi.

Xarizmatik nutqning muhim xususiyati so‘zlovchining auditoriya tomonidan ishonch va e’tirofga sazovor shaxs sifatida qabul qilinishi, tinglovchilarda uning g‘oya hamda maqsadlariga daxldorlik tuyg‘usini uyg‘otishi bilan bog‘liq holda

namoyon bo‘ladi. Bunday ta’sir nutq mazmuni, lisoniy ifoda, ovoz xususiyatlari va muloqot vaziyatining o‘zaro uyg‘unligida yuzaga keladi. Shu tufayli xarizmatik nutqning antropotsentrik talqinida so‘zlovchigaxos individual xususiyatlar bilan birga, uning nutqi va auditoriya munosabati o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham hisobga olish lozim bo‘ladi. Xarizmatik nutqni tadqiq etish zarurati, eng avvalo, ana shu bog‘liqlikni yuzaga keltiruvchi lingvopragmatik omillarni aniqlash ehtiyojidan kelib chiqadi. Bunda lisoniy birliklarning qanday kommunikativ niyatga ko‘ra tanlanishi, muayyan kontekstda qanday vazifa bajarishi va tinglovchiga qay tarzda ta’sir ko‘rsatishini aniqlash orqali hodisaning pragmatik mohiyatini chuqur anglash imkoniyati kengayadi.

Xarizmatik nutqda metafora, takror, parallel qurilmalar, ritorik so‘roq gaplar, subyektiv baho ifodalovchi vositalar, murojaat shakllarining auditoriya munosabatini shakllantirishdagi o‘rni va ishtiroki nihoyatda muhimdir. Xarizmatik nutqni faqat yozma matn asosida tahlil qilish yetarli bo‘lmaydi. Bunda ohang, urg‘u, pauza, ritm va nutq sur’atining ta’sirini ham inobatga olish talab etiladi.

Ilmiy manbalarda notiq ovozi, shaxsiy jozibasi yoki qat’iyati ko‘pincha uning nutqiy muvaffaqiyatini izohlovchi tayyor sabab sifatida ko‘rsatiladi. E.Rozenberg. va J.Hirshberg tajribalarida xarizmatik baho notiqning tanilganligi, nutq janri va taqdim etish shakli bilan bog‘liq holda izohlangan. Unda xarizmaning nutq va matn orqali qanday idrok etilishi, tinglovchiga ta'sir ko‘rsatuvchi til va ovoz xususiyatlarini aniqlash ko‘zda tutilgan. Matn va nutq parallel ravishda tahlil qilinib, xarizmaning akustik, prosodik va leksik-sintaktik ko‘rsatkichlari ilmiy asosda aniqlangan [Rozenberg, Hirshberg, 2009: 640-651]; Y.Mixalski va O.Nibur esa ommalashgan qator tavsiyalarni empirik dalillar asosida qayta baholaydi [Mixalski, Nibur, 2020, 27-30].

O.Nibur, J. Tum hamda J.Mixalski talaffuz va ohangning nozik jihatlari xususida so‘z yuritar ekan, S.Jobs va M.Sukerberg nutqini qiyoslagan holda xarizmatik ta’sirga aloqador ovoz xususiyatlarini batafsil tahlil qiladi. Tadqiqotda asosiy ton darajasi bilan birga ohang urg‘usining shakli va vaqtni hisobga olgan holda tashkil etilishi, shuningdek, undoshlarning farqlanib talaffuz qilinishi o‘rganilgan [Nibur, Tum, Mixalski , 2018: 582–586]. Ushbu tadqiqotda “aniq talaffuz” va “ta’sirchan ohang” kabi umumiy tavsiflar o‘lchanadigan ko‘rsatkichlarga ajratiladi. Ammo bunda ikki so‘zlovchi qiyosiga asoslangan natijalar barcha nutq janrlari va tillar uchun to‘laqonli ravishda universallashtirilmagan.

Xarizma muammosiga doir tadqiqotda ilgari surilgan asosiy konseptsiyalar quyidagilardan iborat: :

1. Afsonalarga barham berish. Xarizmaga uzoq vaqt davomida tushuntirib bo'lmaydigan sehrli sifat tarzida qaralgan. Biroq zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xarizma hissiy va qadriyatlarga asoslangan ramziy yetakchilik signallarini yetkazish usulidir.

2. Fonetik parametrlar va ritorik taktikalar o'zaro bog'liq: Inson ovozining ohangi (prosodiya), talaffuz aniqligi, pauzalardan foydalanish va ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish shakli tinglovchiga xarizmatik ta’sir ko‘rsatishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

3. Mavjud stereotiplarni inkor etish: Ommabop ritorikaga oid ba'zi maslahatlar (masalan, "ovozni imkon qadar pasaytirish", "qorin bilan nafas olish", "barcha umm/err kabi pauzalarni butunlay yo'qotish") tajribaviy tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topmagan va aksincha, xarizma idrokiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [Mixalski, Nibur, 2026].

Nibur, A.Brem, Y.Mixalski, Y.Naych tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda biznes nutqining akustik-melodik tahlili amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqot siyosiy va diniy nutq doirasidan tashqariga chiqib, biznes taqdimotlaridagi xarizmatik ifodaga e’tibor qaratilgani bilan alohida ahamiyatga molikdir. Unda ritm, urg‘u, pauza va ovoz sifati bilan birga auditoriya turi ham muhim kontekst omili sifatida talqin qilinadi [Nibur, Brem, Mixalski, Naych, 2020: 1-40]. Bizningcha, xarizmatik nutqni faqat siyosiy nutq bilan chegaralash maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. O‘zbek tili materiallari misolida siyosiy, pedagogik va biznes nutqini qiyoslash orqali umumiy hamda sohaga xos belgilarni aniqlash mumkin.

I.Maxmatqulov va A.Nazarovning o‘zbek tilidagi “Lider, nutq, notiqlik mahoratining psixologik tavsifi” nomli maqolasida liderning nutqiy qobiliyati, davlat tilini o‘zlashtirishi va kasbiy nutq madaniyatining ahamiyati yoritilgan [Maxmatqulov, Nazarov, 2022: 60-63]. P.Bobokalonov tadqiqotida esa lisoniy shaxs, kommunikativ nutq va xarizmatik shaxs munosabati haqida to‘xtalib o‘tilgan. Ishda fransuz va o‘zbek tillaridagi semantik-funksional shakllangan birliklar hamda kommunikativ formulalarga murojaat qilingan [Bobokalonov, 2025: 102-108]. Ushbu maqola o‘zbek tilshunosligida xarizmatik shaxs masalasining lisoniy shaxs bilan bog‘lab tahlil qilinganini tasdiqlaydi. Biroq undagi lisoniy shaxsdan xarizmatik shaxsga o‘tuvchi pog‘onali modelni universal

rivojlanish qonuniyati sifatida qabul qilish alohida empirik dalil keltirishni taqozo etadi.

Ma’lumki, xarizmatik nutqda ekstralingvistik vositalar ham muayyan pragmatik vazifani bajarishga xizmat qiladi. M.Boychenko tomonidan amalga oshirilgan “Xarizmatik notiqning ommaviy nutqida verbal va noverbal vositalar o‘zaro ta’sirini eksperimental o‘rganish metodikasi” nomli tadqiqot natijalari shu jihatdan diqqatga sazovordir. Unda muallif faqat xarizmatik nutqda qanday so‘zlar yoki imo-ishoralar ishlatilishini aniqlash emas, balki ularning bir-biri bilan qanday uyg‘unlashuvi va tinglovchiga ta’sir ko‘rsatishda qanday vazifa bajarishini o‘rganishga qaratilgan metodikani ishlab chiqadi.

Mazkur tadqiqotda quyidagilarga e’tibor qaratish maqsad qilingan:

1) verbal vositalar, ya’ni leksik, semantik, grammatik, sintaktik va stilistik birliklarning nutqdagi rolini aniqlash;

2) prosodik vositalar — ohang, nutq sur’ati, urg‘u, pauza va tovush balandligining ishtirokini o‘rganish;

3) noverbal va paralingvistik vositalar — ko‘z qarashi, yuz ifodasi, tana holati, imo-ishora va tashqi ko‘rinishning ahamiyatini aniqlash;

4) ushbu vositalarning o‘zaro ta’sirini eksperimental tadqiqot usullari yordamida qayd etish, o‘lchash va lingvistik jihatdan izohlash [Boychenko, 2023: 38-44].

O‘zbek tilshunosligida bu borada hal etilishi lozim bo‘lgan masalalarni quyidagicha belgilash maqsadga muvofiqdir:

1. Tushunchaning chegarasini belgilash. Xarizmatik nutqni ta’sirchan, ishontiruvchi, motivatsion va suggestiv nutqdan ajratish mezonlarini ishlab chiqish.

2. Tahlil birliklarini aniqlash. Xarizmatiklikning butun nutqqa, alohida parchaga, nutqiy aktga yoki so‘zlovchining muloqot uslubiga tegishli baho ekanini aniqlashtirish.

3. O‘zbek tilidagi nutq korpusini yaratish. Turli soha va janrlardagi nutqlarning audio-video yozuvlari, transkripsiyasi hamda kontekstual ma’lumotlarini jamlash.

4. Lisoniy belgilarni tekshirish. Metafora, takror, parallelizm, murojaat, baholash, shaxs deyksisi va umumiy qadriyatlarni ifodalash vositalarining vazifalarini belgilash.

5. Mazmun va ovozning ta’sirchanlik darajasini farqlash. Muayyan nutqiy qurilmani yozma, audio va video shakllarda tahlil qilib, har bir formatdagi materialning ta’sir ko‘rsatish darajasini qiyoslash.

6. Nutqiy akt va natijani ajratish. Va’da, da’vat, ishontirish va qo‘llab-quvvatlash aktlarini tinglovchida hosil bo‘lgan ishonch yoki harakat natijasi bilan tenglashtirmaslik.

7. Madaniy va individual omillarni hisobga olish. Auditoriyaning yoshi, tajribasi, qadriyatlari hamda so‘zlovchi haqidagi oldingi tasavvurining bahoga ta’sirini tekshirish.

8. Baholashning inklyuzivligini ta’minlash. Ovoz balandligi, tez gapirish yoki standart talaffuzni xarizmaning yagona mezoniga aylantirmasdan, turli kommunikativ imkoniyatlarni hisobga olish.

Xarizmatik nutqni tadqiq etishda so‘zlovchining shaxsiy xususiyatlari, nutqqqa xos lisoniy-prosodik jihatlar, muloqot matni va auditoriya idrokiga o‘zaro bog‘liq, biroq alohida tahlil darajalari sifatida qaralishi lozim bo‘ladi.

Xullas, xarizmatik nutqqa doir nazariy qarashlar tahlili ushbu hodisani so‘zlovchining tug‘ma qobiliyati, shaxsiy jozibasi yoki ijtimoiy mavqeyi bilangina izohlash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Xarizmatiklik nutqning auditoriya tomonidan qanday qabul qilinishi, so‘zlovchiga nisbatan ishonch va e’tirofning shakllanishi hamda uning g‘oyalariga daxldorlik tuyg‘usining yuzaga kelishi bilan bog‘liqdir. Shu sababli xarizmatik nutqning lingvopragmatik talqinida so‘zlovchining kommunikativ niyati, nutqiy vositalarning vazifasi, muloqot konteksti va tinglovchi munosabati o‘zaro aloqada o‘rganilishi lozim.

Xarizmatik, motivatsion va suggestiv nutq mazmunan yaqin bo‘lsa-da, ularni aynanlashtirish maqsadga muvofiq emas. Motivatsion nutqda faoliyatga undash maqsadi, suggestiv nutqda ta’sirni singdirish mexanizmlari, xarizmatik nutqda esa so‘zlovchining ishonch uyg‘otish va ergashtirish qobiliyatining auditoriya tomonidan e’tirof etilishi asosiy o‘rinni egallaydi. Muammoni yoritishda mazkur farqlarni hisobga olish xarizmatik nutqning tushunchaviy chegaralari va tahlil mezonlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Tahlilga tortilgan tadqiqotlar xarizmatik ta’sirni tushuntirishda nutq mazmuni va lisoniy qurilishi bilan birga, ohang, urg‘u, pauza, ritm, nutq sur’ati hamda noverbal vositalarni ham hisobga olish zarurligini asoslaydi. Biroq muayyan ovoz xususiyati yoki ritorik usulni barcha sharoitlarda xarizmatiklikni ta’minlovchi universal belgi sifatida baholash uchun yetarli asos mavjud emas.

Ayrim so‘zlovchilar va nutq janrlari misolida olingan natijalar boshqa tillar, madaniyatlar va auditoriyalar doirasida alohida tekshirilishi zarur.

O‘zbek tilshunosligida xarizmatik nutqni tizimli tadqiq etish turli soha va janrlarga mansub audio-video materiallar korpusini yaratish, lisoniy-prosodik belgilarni auditoriya baholari bilan qiyoslash hamda yozma, audio va video taqdimotlarda ta’sirning o‘zgarishini o‘rganishni taqozo etadi. Bunda so‘zlovchining niyati va nutqiy aktini tinglovchida yuzaga kelgan amaliy natija bilan tenglashtirmaslik, madaniy hamda individual farqlarni hisobga olish muhimdir. Baholash mezonlarining inklyuzivligi esa turli kommunikativ imkoniyatlarga ega shaxslar nutqini asosli tahlil qilishga yordam beradi. Bu yo‘nalishdagi izlanishlar xarizmatik nutqning o‘zbek tiliga xos ifoda vositalarini aniqlash, lingvopragmatika nazariyasini boyitish va verbal muloqot samaradorligiga oid amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Bobokalonov P. R. Integration of the Language Person into a Charismatic Person // Ayniy vorislari. – Buxoro, 2025.

2. Boychenko M. “Methodology of Experimental Study of the Interplay of Verbal and Non-verbal Means in the Charismatic Speaker’s Public Speech” // Naukovi zapysky Natsionalnoho universytetu «Ostroh Academy»: Filologiya. 2023. – № 19(87). – P. 38-44.

3. Maxmatqulov I., Nazarov A. Lider, nutq, notiqlik mahoratining psixologik tavsifi // Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya. 2022. Jild 1, № 27. B. 60-63.

4. Niebuhr O., Thumm J., Michalsky J. Shapes and Timing in Charismatic Speech — Evidence from Sounds and Melodies // Proceedings of Speech Prosody 2018. Poznań: ISCA, 2018. P. 582–586.

5. Michalsky J., Niebuhr O. Myth Busted? Ghallenging what wi think we know about charismatic speech. https://doi.org/10.14712/24646830.2019.17https://www.cambridge.org/core/journals/journal-of-child-language/article/12EC1A81343BFD1A0A790CF1C64C4781

6. Rosenberg A., Hirschberg J. Charisma Perception from Text and Speech // Speech Communication. 2009. Vol. 51, No. 7. – P. 640-655.

7. Weber M. Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology / Ed. G. Roth, C. Wittich. Berkeley; Los Angeles; London: University of California Press, 1978. 2 vols. 1469 p.

8. Yusupova Sh. Nutqiy ta’sir masalasining tarixiy va zamonaviy talqinlari //Lingvistika. Til va madaniyat. Vol.1, 2025. – B.85-97.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**